

HARAKAT-TAYANCH A'ZOLARI JAROHATLANGAN BOLALAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

Rajabova Sevinch

*Axborot texnologiyalari va menejment unversiteti Maxsus
pedagogika Defektalogiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falajilik kasalliklari kelib chiqdi ularni davolashni bir qancha samarli yo'llari bor ular bilan korreksion ishlar olib borish kerak. Ushbu ilmiy maqolada harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar haqida umumiy ma'lumot beriladi*

Kalit so'zlari: *Serebral falajlik, korreksion, pedagogika, logopediya diplegiya, spastik gemiplegiya, xomladorlik infektion kasalliklar, surunkali kasalliklari.*

Respublikamizda so'nggi paytlarda bolalarning sog'lom tug'ilishni ta'minlash, alohida yordamga muhtoj bolalarning tug'lishini oldini olish hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari ustida tayinlangan ishlar olib borilmoqda. Bu masalani tez va samarali hal bo'lishini ta'minlash maqsadida onaning xomladorlik davridan boshlab to bola voyaga yetgunga qadar uning rivojlanishi tibbiyot xodimlari, o'qituvchi va tarbiyachilar, psixolog korreksion pedagoglar tomonidan nazorat qilinib, "Sog'lom avlod" dasturini to'g'ri amalga oshirishni ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda.

Natijasida harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar ham aniqlanib, ularga maxsus yordam ko'rsatilmoqda. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligi nogironlar aravachalari olib berilganligi sababli, ular bog'cha va maktablarga qatnay boshlaydilar. Serebral falajlangan bolalarning rivojlanishdagi psixo-jismoniy nuqsonlar birinchi navbatda harakat, sensor va nutqiy kamchiliklar bilan bog'liqidir. Bolalar serebral falajiga ega bo'lga ma'lum kasalliklari bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar, tug'ilgandan to bir yoshgacha davr ichida bolani kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonalari shikastlanadi, uning natijasida esa miyaning yaxlit yetilishi kechikadi va buziladi. Bolalar serebral falajlik (BSF) bosh miyaning harakat zonalari va harakatlarni o'tkazuvchi yo'llarning birlamchi jarohatlanishi bilan namoyon bo'luvchi markaziy nevr tizimi kasalligi. Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq harakat tizimlarining erta organik jarohatlanishi kuzatiladi. Ushbu nuqsonlarning sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin: infektion kasalliklar ayniqsa, virusli infektion kasalliklari; xomladorlik davrida zaxarlanish va turli xildagi jarohatlar; surunkali kasalliklari; ona va homlaning qon guruhi yoki resus faktori bo'yicha o'zaro mos kelmasligi hamda boshqa sabablar; ba'zi hollarda esa, onaning tug'riq vaqtida kamchiliklarga yo'l qo'yilishi natijasida kelib chiquvchi tug'ruq jarohatlari; xomlaning o'z o'qiga o'rilib qolishi natijasida bolada kislород yetishmasligining paydo bo'lishi va buning oqibatidagi bosh miya nevr hujayralarning zaarlanishi. Kasallikning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan harakat buzulishlari bolalar serebral falajida har xil namoyon bo'ladi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Adabiyotlarda bolalar miya falajining quydagи shakllari qayd qilingan:spastik diplegiya ,spastik gemiplegiya, ikkilamchi gemillegiya, paraplegiya, monoplegiya ,atnok -astatik sindirom. Yuqoridagi ta'sirlar natijasida bolaning bosh miyasida turli xildagi jarohatlanish kelib chiqadi. Bolalar serebral falajlanishida dizartrianing o'ziga xosligi artikulyatsion dispraksiyaning namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Bolalar serebral falajida nutqiy buzilishlarini iloji boricha erta aniqlash va korreksion logopedik ishlarni o'z vaqtida boshlash juda muhim hisoblanadi. Ayrim hollarda serebral falajlikning aralash shakli ham uchrab turadi . Bu shaklda bolada spastik-giperkenitik holatlar yoki atetoz harakatlar bilan mushaklar tonusining bilan kelishi mumkin. Serebral falaj bolalardagi mavjud nuqsonlarni korreksiyalashda nuqson turini erta aniqlab, alohida yondashish juda yaxshi samara beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni T.,O'zbekiston, 2008
2. Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni T.,2008
3. Aytmetova S. Sh " Oligofrenopedagogika .-T.,1994
4. Ayupova M. Yu Logopediya-,"O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati "2007

